

**TASDIQLAYMAN:**

**“O‘zmetkombinat” AJ**

**Boshqaruv raisi-bosh direktor**

**R.Pirmatov**



“ ” \_\_\_\_\_ 2022-yil

**“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablari asosida “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - Kombinat) tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish jarayonida shaffoflikni ta‘minlash, ilg‘or, yuqori malakali, tegishli ma‘lumotga va kasbiy tayyorgarlikga ega talabgor fuqarolar va kombinat tarkibiy bo‘linmalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarga xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida teng imkoniyatlar taqdim etgan holda, ularni ochiq tanlov (keyingi o‘rinlarda - Tanlov) asosida ishga qabul qilish va/yoki boshqa ishga o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Tanlov mehnat qonunchiligi va ushbu Nizom talablariga muvofiq o‘tkaziladi.

2. Tanlov kombinat tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga malaka talablariga muvofiq eng munosib nomzodni saralab olish maqsadida o‘tkaziladi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**vakansiya (bo‘sh ish o‘rni)** - kombinat shtat jadvalida mavjud bo‘lgan, u bo‘yicha mehnat shartnomasi tuzilmagan shtat birligi yoki 4 oydan ko‘p muddatda asosiy xodim bo‘lmagan shtat birligi;

**nomzod** - kombinatning rasmiy saytida e‘lon qilingan bo‘sh ish o‘rinlariga ishga kirish va/yoki boshqa ishga o‘tish maqsadida kombinatning [resum.uzbeksteel.uz](https://resum.uzbeksteel.uz) saytiga tashqi tanlovda va [my.uzbeksteel.uz](https://my.uzbeksteel.uz) saytiga ichki tanlovda ishtirok etish uchun o‘z ma‘lumotlarini yuborgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, chet el fuqarolari va Kombinat xodimlari;

**maxsus jihozlangan xona** – tanlov o‘tkazish jarayonida korrupsiyaviy xolatlarni oldini olish maqsadida, xolislar va aholi tomonidan onlayn kuzatish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan kuzatuv jihozlari bilan maxsus jihozlangan xona. Maxsus jihozlangan xonadagi har bir kompyuter web-kameralar bilan jihozlangan bo‘lib, har bir test topshirayotgan nomzodni suratga tushurish uchun foydalaniladi;

**malaka attestatsiyasi** - xodimlarining malaka, lavozim ko‘nikmalari darajasini, ularning o‘zlari faoliyat yuritayotgan sohasi (jumladan, lavozim yo‘riqnomasi, sohaga oid davlat

qonunchilik va kombinatning lokal me'yoriy hujjatlari), mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi, sanitariya qoidalari, respublika xayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy yangiliklardan xabardorligi bo'yicha bilimlari hamda uning shaxsiy fazilatlarini tekshirish, baholash va tegishli xulosa berish maqsadida o'tkaziladigan sinov jarayoni;

**tanlov** - mazkur Nizom talablari asosida o'tkaziladigan, kombinat oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish bo'yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko'nikmasi, shaxsiy psixologik xususiyatlari mos kelishini, shuningdek, barcha fazilatlarini va ustunliklarini, shu jumladan, ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik sifatlarini xolisona baholashga qaratilgan jarayonlar majmui.

#### 4. Mazkur Nizom talablari:

- shahar hokimining qarori bilan belgilanadigan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam soniga;

- bo'shab qoladigan xodimlarni ishga joylashtirish maqsadida (xodimlar soni yoki shtati qisqarishi, mehnat sharoitlari o'zgarishi munosabati bilan);

- ish beruvchining takliflari asosida;

- 4 oydan ko'p bo'lmagan muddatga vaqtincha ishlash uchun (boshqa ishga o'tish paytida);

- sog'lig'i holatiga ko'ra yoki malakasining yetishmasligi sababli, bajaradigan ishlarga nomuvofiqligi tufayli;

- xizmat tekshiruvi xulosasi asosida;

- xuddi shu tarkibiy bo'linmada bir xil mutaxassislik (lavozim, kasb) va malaka bo'yicha ishlash uchun;

- top-menejment bilan bog'liq lavozimlarga;

- ishlab chiqarish zarurati tufayli;

- quyi va kam maoshli lavozim/kasbga;

- qonun hujjatlarida yoki kombinatning lokal-me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda nomzodlarni ishga qabul qilish (o'tkazish, tayinlash) amalga oshirilganda qo'llanilmaydi;

5. Ushbu lavozimda/kasbda 3 oydan ortiq vaqt davomida vaqtincha ishlagan xodimni doimiy ishga o'tkazish malaka attestatsiyasidan o'tganidan keyin amalga oshiriladi.

## 2-bob. Tanlovni tashkil etish

6. Tanlov ushbu Nizomning 1-ilovasida ko'rsatilgan tanlov komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Tanlov komissiyasi tarkibiga yo'nalish rahbarining taqdimiga ko'ra rahbarlar, mutaxassislar yoki bo'linmalar xodimlari jalb etilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi a'zosi bo'lgan xodim boshqa lavozimga o'tkazilganda yoki u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ushbu lavozimni egallagan yoxud tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan xodim komissiya tarkibiga kiritiladi.

7. Korrupsiyaning oldini olish maqsadida tanlov komissiyasi a'zolari va komissiyaga jalb etiladigan xodimlar tanlov o'tkazilgan kun yoki bir kun avval taklif etiladi.

8. Tanlov o'tkaziladigan vakansiyaning xususiyatiga qarab, tanlov jarayoniga holis kuzatuvchilar ham jalb qilinishi mumkin.

9. Tanlov xodimlarni boshqarish departamenti xodimlar bilan ishlash boshqarmasi kadrlarni tanlash bo'limi tomonidan tashkil etiladi va ushbu bo'limning boshlig'i yoki xodimlaridan biri tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul kotib sifatida kiritiladi.

**10.** Nomzod tanlovda ishtirok etishi uchun o'z rezyume va hujjatlarini kombinatning [my.uzbeksteel.uz](http://my.uzbeksteel.uz) yoki [resume.uzbeksteel.uz](http://resume.uzbeksteel.uz) saytiga elektron shaklida yuborishlari shart. Nomzod tomonidan rezyume to'ldirishda yolg'on ma'lumot berilgan, hujjatlari sohta yoki umuman yo'q ekanligining aniqlanishi, nomzodning tanlovdan chetlatilishi uchun asos hisoblanadi.

**11.** Kadrlarni tanlash bo'limi, xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi hamda korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti xodimlari bilan birgalikda tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni mutaxassisliklari va boshqa jihatlari bo'yicha o'rganib chiqadi. Nomzodlar, o'zlari taqdim qilgan ma'lumotlari bo'yicha barcha belgilangan talablarga muvofiq saralab olinadilar va birinchi bosqichda kadrlarni tanlash bo'limi tomonidan tashkil etilgan test sinoviga chaqiriladi. Testdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga ikkinchi bosqichda suhbat tashkil etiladi. Tanlov komissiyasining xulosasiga ko'ra suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topilgan nomzodlar, bo'sh ish o'rnining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ish beruvchining tashabbusiga ko'ra amaliy sinovga yuborilishi mumkin bo'ladi. Ikkinchi bosqich natijalari amaliyot/suhbat varaqasida (2-ilova) aks ettiriladi. Tanlov komissiyasining yakuniy xulosasi tanlov bayonnomasi (3-ilova) bilan rasmiylashtirilib, komissiya raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangan tanlov bayonnomasi nomzod bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga asos bo'ladi.

**12.** Tanlov quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- bo'sh ish o'rnini to'g'risidagi e'lon kombinatning rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida tanlov o'tkazilishidan kamida 10 (o'n) kun oldin beriladi. Ko'rsatilgan bo'sh ish o'rniga kamida 2 (ikki) nafar nomzod rezyume yuborgandan keyingina tanlovning birinchi bosqichi o'tkazilishi mumkin;

- nomzodlarning [my.uzbeksteel.uz](http://my.uzbeksteel.uz) yoki [resume.uzbeksteel.uz](http://resume.uzbeksteel.uz) sayti orqali qabul qilingan hujjatlarini mutaxassisligi va boshqa jihatlari bo'yicha saralab, tanlov o'tkazilishidan kamida 1 (bir) kun oldin nomzodlarga bu haqida xabar beriladi;

- nomzodlar birinchi bosqichda test sinovlaridan o'tkaziladi (1 kunda 150 nafargacha nomzodlar bilan);

- birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar uchun ikkinchi bosqichda suhbat 1 (bir) kun va amaliy sinov 1 (bir) kun o'tkaziladi;

- Tanlov yakunlariga ko'ra bayonnoma rasmiylashtiriladi va tasdiqlash uchun yo'nalish boshlig'iga, agar u mavjud bo'lmasa uning o'rinbosariga tasdiqlash uchun taqdim etiladi;

- bayonnoma tasdiqlangandan va tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, xodim qabul qilinadigan(boshqa ishga o'tgan) tarkibiy bo'linma belgilangan tartibda kamida 10 (o'n) ish kuni ichida mehnat shartnomasi va ishga qabul qilish yoki boshqa ishga o'tkazish to'g'risida buyruq rasmiylashtiradi.

**13.** Bo'sh ish o'rnini Internet tarmoqlarida e'lon qilinayotganida, qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, bo'sh ish o'rnining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, lavozim/vazifalarning ayrim toifalariga qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin (kasbiy tayyorgarlik darajasi, ish staji, chet tillarini bilish darajasi va boshqalar).

**14.** Tanlov jarayonida shaffoflik va xolislikni ta'minlash maqsadida korporativ xavfsizlik va resurslarni muhofaza qilish departamentining axborot xavfsizligi bo'limi xodimlari xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi binosining ikki xonasida (test va intervyu o'tkazish uchun) o'rnatilgan videokuzatuv kameralaridan sinov jarayonini yozib olish va yozuvlarni 3 oy davomida saqlashni tashkil qiladi.

15. Tanlovni tashkil etish va o'tkazishda belgilangan talablarga rioya etmaslik holatlari, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazgan noqonuniy aralashuvlar va xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda, ish beruvchi o'z tashabbusiga ko'ra tanlov natijasini to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

16. Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlar (transport xarajatlari, yashash, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan foydalanish) nomzodning o'z hisobidan amalga oshiriladi.

17. Nomzodlardan Tanlovga tegishli bo'lmagan hujjatlar va ularning nusxalarini talab qilish va olib qolish ta'qiqlanadi.

### **3-bob. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon joylashtirish**

18. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon, tarkibiy bo'linmalar taqdim qilgan xizmat xatlari (talabnomalar) da ko'rsatilgan bo'sh ish o'rnini to'ldirish zarurligidan kelib chiqib amalga oshiriladi. E'lon matni kadrlar tanlash bo'limining mas'ul xodimi tomonidan tayyorlanadi. E'lon matni kombinatning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarida talabnoma kelib tushgan kundan boshlab bir ish kunidan kechiktirmay, agar kerak bo'lsa, boshqa rasmiy kanallarda e'lon qilinadi.

E'londa bo'sh ish o'rinlari, hujjatlarni topshirish muddati va shartlari, Tanlovda ishtirok etishni istagan nomzodlarga qo'yiladigan minimal talablar va boshqa tegishli ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

19. Bo'sh ish o'rinlarining ayrim toifalariga qo'shimcha malaka talablari mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu bo'sh ish o'rinlari e'lon qilinganda qo'shimcha talablar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

20. Tanlov o'tkazilishi vaqti to'g'risida nomzodlarga, ularning rezyumeda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga tanlov o'tkazilishidan kamida bir kun oldin SMS-xabar yuborish yo'li bilan xabar beriladi.

### **4-bob. Test sinovlarini o'tkazish tartibi**

21. Test sinovlari birinchi bosqichda nomzodlarning shaxsiy kasbiy bilim va ko'nikmalari (kompetensiyalari)ni aniqlash maqsadida elektron tarzda maxsus jihozlangan xonada o'tkaziladi.

Sinov o'tkazish uchun shartlar:

- sinov videokuzatuv ishlaydigan alohida xonada (rasm, har ikki yo'nalishda ham ovoz); va videoyozuvni saqlash imkoniyati bilan amalga oshiriladi;

- har bir test topshiruvchisi uchun web-kameralar o'rnatiladi;

- kadrlarni tanlash bo'limi/xavfsizlikni ta'minlash va resurslarni himoya qilish departamenti nomzodni sinovga kirishiga ruxsat berish uchun asl hujjatlarni tekshiradi. Hujjatlar bo'lmagan taqdirda, nomzodga test o'tkazishga ruxsat berilmaydi.

- sinovda kadrlar tanlash bo'limi/xavfsizlik va resurslarni muhofaza qilish departamenti xodimi ishtirok etadi va sukunatni, sinov natijalariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar va boshqa shart-sharoitlarning yo'qligini ta'minlaydi.

22. Test savollari (javoblar bilan) kadrlarni tanlash bo'limining mas'ul xodimi yoki kombinatning tarkibiy bo'linmalari tomonidan xodimlarni boshqarish departamentining so'rovi (buyurtmanomasi) bo'yicha ishlab chiqiladi va kadrlar tanlash bo'limiga ularning yo'nalishi bo'yicha departamentlar yoki direksiyalar direktorlari bilan kelishgan holda topshiriladi.

23. Birinchi bosqichda testdan o'tish ko'rsatgichi 80 foizni tashkil etadi. Ish beruvchining tashabbusiga ko'ra, testning o'tish ko'rsatgichlariga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

24. Test sinovlari tugashi bilan test natijalari kombinatning rasmiy kanallariga joylashtirib boriladi.

25. Test natijalari Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamentiga nomzod tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib, xulosa berish uchun kiritiladi. Nomzod tanlovning ikkinchi bosqichiga o'tganligi masalasi Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamentining xulosasiga asosan aniqlanadi.

26. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'ta olmagan nomzodlar, ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qayta qatnashishlari mumkin.

27. Test sinovlarini o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda xabardor qilingan, lekin shaxsiy sabablarga ko'ra (mobil telefon raqami o'chirilgan va h. k.) SMS-xabar olish imkoniga ega bo'lmagan nomzodlar va shunga o'xshash holatlar bo'yicha test sinovlarida qatnashmagan deb e'tirof etiladi va test sinovlaridan o'tmagan deb hisoblanadi.

### **5.bob. Suhbat o'tkazish tartibi**

28. Ikkinchi bosqichda suhbat nomzodni baholash, uning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalari, shaxsiy fazilatlarini kombinatda mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlarini egallashga qo'yilgan talablarga mos kelishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

29. Agar tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning qarindoshi bo'lsa yoxud suhbat natijasidan shaxsan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lsa, uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, komissiya a'zosi o'zini o'zi rad qilish haqida ariza berishi talab qilinadi, aks holda o'tkazilgan suhbat natijasi xaqiqiy deb hisoblanmaydi.

30. Tanlov komissiyasi xulosasi bo'yicha bo'sh o'rinlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb e'tirof etilgan nomzodlar ish beruvchining tashabbusi bilan amaliy sinovga yo'naltirilishi mumkin. Barcha nomzodlar bilan suhbat natijalariga ko'ra, belgilangan tartibda ushbu Nizomning 11-bandiga muvofiq suhbat/amaliyot varaqasi (2-ilova) tuziladi.

31. Suhbat o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda xabardor qilingan, lekin o'zining shaxsiy sabablariga ko'ra yoki Nizomda belgilangan tartibda SMS-xabar qabul qilish imkoni bo'lmagan (mobil raqami o'chirilgan va boshqa) holatda va shu kabi vaziyatlarga ko'ra suhbatda qatnasha olmagan nomzodlar, suhbatda ishtirok etmagan deb topiladilar va suhbatdan o'tmagan deb hisoblanadilar.

Nomzodlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qayta qatnashishlari mumkin.

### **6-bob. Yakuniy xulosa**

32. Tanlov komissiyasi a'zolarining yakuniy xulosasi Tanlov bayonnomasida quyidagi takliflardan birini tanlash yo'li bilan aniqlanadi (3-ilova):

- mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etiladi (sinov muddati bilan)/mehnat shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi;

-boshqa ishga o'tkazish tavsiya etiladi/boshqa ishga o'tkazish tavsiya etilmaydi.

- zaxiraga olish tavsiya etiladi.

Tanlov komissiyasining qarori, agar unda komissiya a'zolarining umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan bo'lsa, huquqiy hisoblanadi. Tanlov komissiyasining xulosasi komissiya a'zolarining umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlarining teng taqsimlanishi bilan yakuniy qaror yo'nalish rahbarining xulosasi asosida qabul qilinadi.

33. Holis kuzatuvchilar va Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamentining ob'ektiv vakillari tanlovning barcha bosqichlarida qatnashish huquqiga ega.

34. Nomzod tanlov komissiyasi xulosasidan norozi bo'lgan taqdirda, xulosa qabul qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni muddatida tanlov natijalari bo'yicha komissiya xulosasi ustidan kombinatning jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlashga mas'ul bo'limi orqali kombinat rahbariyatiga shikoyat qilish huquqiga ega.

35. Agar me'yoriy-huquqiy hujjatlarda bo'sh lavozimga qabul qilish/o'tkazishda nomzod tegishli vazirlik yoki boshqa idora bilan kelishilishi kerakligi ko'rsatilgan bo'lsa, mas'ul kotib tegishli hujjatlarni vazirlikka yoki idoraga kelishish uchun yuboradi hamda ijobiy javob olgandan so'ng mehnat munosabatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish choralarini ko'radi.

### **7-bob. Nomzodlarni zaxiraga olish tartibi**

**36.** Kombinatning tarkibiy bo‘linmalarini kadrlar bilan o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida test sinovlarida yaxshi natijalarni ko‘rsatgan, ammo suhbat natijalari boshqa nomzodlarga qaraganda past bo‘lgan nomzodlar bayonnomada “zaxiraga olish tavsiya etiladi ” iborasi bilan rasmiylashtiriladi va kombinatda yangi ochilgan bo‘sh ish o‘rinlar uchun takroriy tanlov o‘tkazmasdan mutaxassisligi bo‘yicha qabul qilinishi/o‘tkazilishi lozim.

### **8-bob. Yakuniy qoidalar**

**37.** Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar kombinatning qonun hujjatlarida va mahalliy me’yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy va boshqa javobgarlikka tortiladilar.

**38.** Mazkur Nizomga kombinat kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishgan holda, Boshqaruv raisi – bosh direktorning buyrug‘i bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

**39.** Mazkur Nizomning amal qilish muddati – 5 (besh) yil.

“O‘zmetkombinat” AJ  
tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga  
nomzodlarni tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi  
Nizomga  
2-ilova

Kombinatning \_\_\_\_\_ da mavjud bo‘lgan  
“ \_\_\_\_\_ ”

lavozim/vazifasida bo‘sh ish o‘rni bo‘yicha  
AMALIYOT/SUHBAT VARAQASI

Bekobod sh.

202\_\_-yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Nomzod to‘g‘risida ma‘lumot

Ism, familiya, otasining ismi	
Tug‘ilgan yili va joyi	
Ma‘lumoti	
Diplom bo‘yicha mutaxassisligi	
Umumiy mehnat staji	

Nomzodga berilgan amaliy/og‘zaki sinov savollar

T/r	Amaliyot/og‘zaki savollar	Natija (qoniqarli/qoniqarsiz yoki ball)
1		
2		
3		
4		
5		

\_\_\_\_\_  
Komissiya raisi:

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana, oy, yil

\_\_\_\_\_  
Komissiya a‘zosi:

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana, oy, yil

\_\_\_\_\_  
Komissiya a‘zosi:

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana, oy, yil

\_\_\_\_\_  
Komissiya a‘zosi:

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana, oy, yil

\_\_\_\_\_  
Mas‘ul kotib:

\_\_\_\_\_  
imzo

\_\_\_\_\_  
sana, oy, yil

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik  
jamiyati tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh  
ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab  
olish to‘g‘risidagi Nizomga  
1-ilova

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining tarkibiy bo‘linmalari va filiallarida bo‘sh vazifa/lavozimlariga nomzodlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish uchun tanlov komissiyasi tarkibi.

<b>1</b>	Komissiya raisi:	Yo‘nalish rahbari yoki yo‘nalish bo‘yicha rahbar o‘rinbosari, agar u yo‘q bo‘lsa
<b>2</b>	Komissiya a‘zosi:	Bevosita rahbar
	Komissiya a‘zosi:	Agar ehtiyoj tug‘ilsa, bevosita rahbardan yuqori darajadagi rahbar
	Komissiya a‘zosi:	Agar ehtiyoj tug‘ilsa, korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti xodimi
	Komissiya a‘zosi:	Yo‘nalish rahbarining taklifiga binoan, yo‘nalish bo‘yicha mutaxassis
	Mas‘ul kotib*	Kadrlar tanlash bo‘limi xodimi

\* Xulosa berish huquqisiz

Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan yoki u bilan mehnat shartnomasi bekor bo‘lgan taqdirda, ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.



“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish to‘g‘risidagi Nizomga  
3-ilova

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zmetkombinat” AJ  
Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari–ijrochi direktor  
D.T.Axmedov

\_\_\_\_\_ 202\_\_ yil

“O‘zmetkombinat” AJ “\_\_\_\_\_”da mavjud bo‘lgan “\_\_\_\_\_” bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha

o‘tkazilgan tanlov  
BAYONNOMASI

202\_\_ -yil “\_\_” “\_\_”

Bekobod sh.

Komissiya a‘zolari	1. F.I.Sh 2. F.I.Sh 3. F.I.Sh
--------------------	-------------------------------------

“\_\_\_\_\_” tarkibiy bo‘linmalarida mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha jami \_\_\_\_ nafar nomzodlar test jarayonida qatnashdilar. Ushbu nomzodlardan \_\_\_\_ nafari test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tdi. Komissiyaning umumiy xulosasiga ko‘ra, suhbat va amaliy sinovlardan jami \_\_\_\_ nafar nomzodlardan o‘tganligi aniqlandi va komissiya a‘zolari quyidagi qarorga kelishdi.

#### Q A R O R:

Suhbat va amaliy sinov, test sinovlari jarayoniga ko‘ra, quyidagi \_\_\_\_ nafar nomzodlar tanlov sinovlardan o‘tdi deb hisoblansin va “\_\_\_\_\_” mavjud bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlariga rasmiylashtirilsin va/yoki zaxiraga olinsin.

T/r	F.I.Sh.	Natija (Bo‘sh ish o‘rinlariga tavsiya etiladi/ soha bo‘yicha zaxiraga olinadi)
1		
2		
3		
4		
....		

Komissiya a‘zolari:

T/r	Lavozimi	Imzo	F.I.Sh.
1.	Lavozimi		F.I.Sh.
2.	Lavozimi		F.I.Sh.
3.	Lavozimi		F.I.Sh.
4.	Lavozimi		F.I.Sh.
5.	Bayonnoma yurituvchi:		F.I.Sh.